

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TARBIYASI QIYIN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH USULLARI

M.P.Jumabaeva – talaba

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch soʻzlar: oila va maktab hamkorligi, taʼlim va tarbiyadagi uygʻunlik, jamoaviy tarbiya, tarbiyadagi muhim unsurlar, pedagogik-psixologik va axloqiy tarbiya usullari, tarbiya qonuniyatlari va qoidolari, tarbiyaning maqsad va vazifalari.

Ключевые слова: сотрудничество семьи и школы, гармония в образовании и воспитании, коллективное воспитание, важные элементы воспитания, методы педагогико-психологического и нравственного воспитания, закономерности и правила воспитания, цели и задачи воспитания.

Key words: family and school cooperation, harmony in education and upbringing, collective upbringing, important elements in upbringing, methods of pedagogical-psychological and moral upbringing, laws and rules of upbringing, goals and objectives of upbringing.

Kirish. Tarbiya usullari tarbiyaning maqsadi va mazmunidan kelib chiqib, komil inson shaxsini tarbiyalashga qaratilgandir. Boshlangʻich maktabdaroq bolaning tarbiyasiga eʼtiborli boʻlish talab qilinishining sababi, bola shu davrda olgan koʻnikmasini hayoti davomida qoʻllaydi. Oʻz-oʻzidan koʻrinib turibdiki, tarbiyasi ogʻir bolalar bilan kichik yoshdaroq yetarlacha shugʻullanilmasa muammoli vaziyatlarga yechim topishi yanada qiyinroq kechadi. Va afsuski Oʻzbekistonda rivojlangan mamlakatlarga qaraganda hali hamon taʼlim yoʻnalishida tarbiyasi qiyin oʻquvchilar bilan ishlash uchun inklyuziv taʼlim strategiyasi tuzilmaganligi aniqlandi.

Maktablarda bolalarga nisbatan baʼzan “tarbiyasi qiyin bola” jumlasini ishlatiladi. Tarbiyasi qiyin bolalar deganda koʻpgina holatlarda voyaga yetmaganlar bilan ishlash nazoratchilari roʻyxatida hisobga olingan yoki olinmagan, giyohvandlik va spirtli ichimlikka ruju qoʻygan, oʻgʻrilik va bezorilikka moyil oʻquvchilar ham nazarda tutiladi. Boshlangʻich sinflarida oʻqiydigan bolalar orasida bu ehtimol tabiiyki, kamroq uchraydi. Shu bois endigina unib borayotgan niholni toʻgʻri oʻsishiga koʻmaklashish, vaqtida tarbiyasiga eʼtibor qaratish lozim. Kuzatishlardan maʼlum boʻlishicha, tarbiyasi qiyin bolalar tarbiya jarayonida pedagogik taʼsirlarga qarshilik koʻrsatadi, ularning xulqida oʻzini biz xohlaganday tutmaslik holatlari kuzatiladi.

Masalan, boshlangʻich sinf oʻquvchilari maktabdagi asosiy vazifalarini: oʻzini maktabda, uyda qanday tutish qoidalarini bilib oladilar. Bunday odatlar ularga naʼmuna koʻrsatish, bildirish orqali singdiriladi. Agar bolaning tarbiyasi ogʻir boʻlsa, u holda, unga alohida eʼtibor bilan individual holatda yondashish maqsadga muvofiqdir. “Tarbiyasi ogʻir” bolalar pedagogik qarovsizlik natijasidir. L.S.Vigotskiyning fikricha [1:132-148], “ogʻir” oʻsmir hayoti munosabatlar xarakterining natijasidir.

Har bir ishning oʻziga xos, maʼlum qonun-qoidalari boʻlganidek, tarbiyasi ogʻir bolalar tarbiyasining oʻziga xos bir qator muhim qonun-qoidalari bor, ularga amal qilish tarbiya ishining samarali boʻlishini taʼminlaydi, chunonchi, tarbiyada bola shaxsini hurmat qilish va unga talabchanlik; oʻquvchilarning yoshi va oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhim.

Adabiyotlar tahlili. Tahlillar jarayonida bir qator ilmiy adabiyotlardan foydalandik. Jumladan, Nikulina Tatyana olib borgan “Tarbiyasi ogʻir bolalar bilan ishlash metodikasining prinsiplari” mavzusidagi tadqiqot ishiga koʻra, “tarbiyasi qiyin oʻquvchilar bilan ishlash juda murakkab va uzoq jarayondir”-degan fikrni aytadi [2:2556-2560]. Shuning uchun tarbiyasi qiyin oʻquvchilar bilan psixologik-pedagogik tarbiyaviy va korreksiyaviy ishlarni olib borishda quyidagi tamoyillarga rioya qilib va pedagogik taʼsirning ayrim usullaridan foydalanib, muallif Makarenko metodini amalda qoʻllashni taklif qilgan.

Peter Westwood va Gunter Wongning Gonkong Universitetida oʻtkazgan “Oʻqishda maxsus qiyinchiliklari

boʻlgan oʻquvchilarning talablarini qondirish” [3:67-77] nomli ilmiy maqolasida, 34 ta boshlangʻich sinf oʻqituvchilari ishtirok etib, kichik miqyosdagi tadqiqot haqida maʼlumot berilgan shu bilan birgalikda shaxsiy va akademik taʼlim ehtiyojlarini qanday qondirishlarini aniqlash uchun Gonkongda oʻziga xos oʻrganish va oʻqitish uslublari bilan rasman tanishib chiqilgan.

Halovat Baxtiyorovna “Tarbiyasi qiyin va boʻsh oʻzlashtiruvchi oʻquvchilar bilan ishlashni tashkil etishning metodik imkoniyatlari” [4:1017-1023] mavzusiga yozgan ilmiy maqolasida, bir qator tavsiya va takliflarni berib oʻtgan, ular:

- ✓ Qiziqishlar va mayylarni hisobga olish;
- ✓ Oʻquvchining niyatini bilishga harakat qilish;
- ✓ Oʻquvchining hurmatga sazovor boʻlish istagini ragʻbatlantirish;
- ✓ Oʻquvchi xatti-harakatlari oqibatini koʻrsatish;
- ✓ Oʻquvchining qadr-qimmatini joyiga qoʻyish;
- ✓ Oʻquvchining yutuqlarini maʼqullash;
- ✓ Ishingizning taʼsirchanligini oshirish;
- ✓ Baʼzida oʻquvchilaringizga nisbatan “kerak” degan soʻzni ishlatish;
- ✓ Vaziyatdan foydalanish.

E.N.Shestakovaning “Формы работы с трудными детьми и их родителями” [5] nomli maqolasida ham bir qator amaliy tavsiyalarni berib oʻtgan, ular:

- Bolani qiziqarli va foydali mashgʻulotlarga jalb qilish.
- Sinfda bola oʻzini qulay his qiladigan va boshqa bolalar hisobiga oʻzini tasdiqlashga hojat qolmaydigan muhit yaratish.
- Bolada irodali fazilatlarini rivojlantirish, unga uy vazifasini tayyorlash va darslarga muntazam qatnashish uchun mustaqil ravishda javobgar boʻlishga yordam beradi.
- Oʻz xatti-harakatiga toʻgʻri munosabatni shakllantirish, oʻz yutuqlari va muvaffaqiyatlarini payqash, xatolariga tanqidiy munosabatda boʻlish qobiliyati.
- Doʻstlar va oʻqituvchilar bilan ishonchli munosabatlarni shakllantirish, bu unga yordam beradi, agar kerak boʻlsa, yordam soʻrang.
- Bolaga axloqiy tamoyillarni oʻrgatish, kattalarga hurmat, hamdardlik, ishtirok etish.
- Kimgadir yordam kerak boʻlganda yordam berish zarurligini shakllantirish.

Jamoaviy shakllar.

Bularga sinf soatlari, umumiy oʻyinlar, suhbatlar, soʻrovnoma, sayrlar kiradi. Bu mashgʻulotlar davomida tarbiyasi qiyin bola boshqa bolalar orasida boʻladi, ularning xatti-harakatlarini kuzatadi, oʻzi va ular orasidagi farqni sezadi va kerakli xulosalar chiqaradi. Agar sinfda oʻquvchilar oʻrtasida etarlicha doʻstona munosabatlar shakllangan boʻlsa, tarbiyasi qiyin bola oʻzini begonadek his qilmaydi, aksincha, kerakli his qiladi. Bu kuchli tarbiya omili.

Individual shakllar.

Shaxsiy so'rovlar, o'qituvchi bilan yakka-yakka suhbatlar, muammoli o'quvchining oilasiga tashrif buyurish, u uchun individual ish rejasini tuzish, maktab psixologi bilan birgalikda ishlash va boshqalar.

Individual ishlaganda, o'qituvchi bolaga eng yaqin bo'lgan faoliyat sohasini ajratib ko'rsatishi kerak, bunda u tezda muvaffaqiyatga erishadi. Ba'zida shunday vaziyatlar bo'ladiki, bola har jihatdan bir xil paytlarda e'tibordan chetda qolgandek tuyuladi, u ma'lumotni yaxshi qabul qilmaydi, qo'pol, yolg'on gapiradi va hech narsaga qiziqmaydi.

A.E.Agayevning "Работа психолога с трудными детьми младшего школьного возраста" [6:4-6] nomli maqolasida ham huddi bundan avvalgi maqola singari holatni kuzatganmiz. Ya'ni ota-ona farzandni tarbiyasida katta ro'l o'ynashi tasdiqlangan biroq aksar ota-onalar muvaffaqiyatsiz o'rganishning asl sabablarini tushunishni istamaslikni o'qituvchining past darajadagi professionalligi va bolaning individual rivojlanishi bilan bog'lashadi.

Bundan tashqari L.A.Azarova "bolalarni tarbiyalashda xavf" keltirib chiqaradigan quyidagi sabablarni aniqlagan:

- oilada tarbiyaning etishmasligi, ota-onalar bolalarning ehtiyojlari va manfaatlarini to'liq bilmassligi;
- bolalar bilan maqsadli, keng qamrovli tarbiyaviy ishlarning yo'qligi;
- bolalarning har bir harakatlari uchun haddan tashqari shafqatsizlik qilishi;
- ajralishlarning "epidemiya";
- ota-onalarning farzandlari bilan hissiy aloqalarini yo'qotishi;
- nomaqbul deb hisoblanishi mumkin bo'lgan oilaviy-maishiy munosabatlar;
- bolalar ustidan e'tibor va nazoratning etishmasligi;
- ota-onalarning ortiqcha ish bilan bandligi.

Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashda sinf rahbarining ishi muhim o'rin tutadi. A.V.Fetisova sinf rahbari tarbiyasi qiyin bolalar va ularning ota-onalari bilan individual suhbatlar o'tkazish zarurligini ta'kidlaydi. Sinf rahbari ota-onalarga bevosita yordam berishi mumkin [7:66-69].

Tarbiyasi qiyin bolalarning xatti-harakati maktabning profilaktika kengashida muhokama qilinadi. Keyingi ishlar kichik o'qituvchilar kengashlariga, maktabning pedagogik kengashi yig'ilishlariga va ta'lim muassasasi ma'muriyatiga bevosita kirishni o'z ichiga oladi.

Metodologiya. Metodologiya qismini to'ldirish va uni shakllantirish maqsadida kerakli ma'lumotlarni turli ma'lumotlar bazalari ma'lumotlariga tayangan holda amalga oshiribgina qolmay, ushbu mavzu yuzasidan olib borilayotgan ishlarni chuqur o'rganib chiqqan holda o'z izlanishlarimizni tahlil qildik va quyidagi metodlardan foydalandik: adabiyotlarni o'rganish metodi, kuzatish metodi, bolalar ijodini o'rganish, mamlakatlararo holatni tahlil qilish va SWOT tahlil metodlari.

Tahlil natijasi shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning tarbiyasi ijobiy tarafga o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan kuchli va zaif tomonlar, imkoniyat va tahdidlarini yoritishga yordam berdi. Oldimizga qo'yilgan muammoning yechimini izlash yoki uni bartaraf etish uchun biz avvalo muammoni keltirib chiqarayotgan sabablarni o'rganib chiqishimiz kerak bo'ladi, zero daraxt ildizining holatini bilmasdan turib uni parvarish qilishimiz mushkul holat.

Natijalar. O'zbekistonda tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashda qo'llanilayotgan uslublarga ko'ra tarbiyachi tegishli qoida va talablarga qanday rioya qilish zarurligini

bolalarga ko'rsatadi va tushuntiradi. Masalan, ota-ona, aka-opalarni hurmat qilish, sizlash va siylash, ularning so'zidan chiqmaslik kabi unsurlar bolaga uqtiliradi. Tarbiyani boshlang'ich sinf bolasiga oila doirasida tushuntirishdan maqsad, bolada avvalo unib-o'sgan muhitida voqelikka yoki biror hatti-harakatga to'g'ri baho berish, ongli munosabatda bo'lishini shakllantirishga yordam beradi.

Asosiysi, tarbiya usullari – o'qituvchining o'quvchiga ta'sir ko'rsatish usullari, ularga ijobiy xulq-atvor ko'nikmalari va malakalarini singdirish maqsadida ularning hayoti va faoliyatini tarbiyaviy jihatdan to'g'ri tashkil etish yo'llaridir. Boshlang'ich maktabdoyoq bolaning tarbiyasiga e'tiborli bo'lish talab qilinishining sababi, bola shu davrda olgan ko'nikmasini keyingi hayotida davom ettiradi. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, tarbiyasi og'ir bolalar bilan kichik yoshdoyoq yetarlicha shug'ullanmasak, keyingi muammolarga yechim topish yanada qiyinroq kechadi.

Muhokama. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining "Baxtiyor oila" nomli kitobda "agar pedagog-tarbiyachi bolaga ibratli tarbiya berolsa, natijasidan o'zi ham mutlaqo bahramand bo'ladi. Tarbiyalanuvchi o'z navbatida xoh otasi yoki onasi bo'lsin, xoh ustoz bo'lsin, umrining oxirigacha ularga tavoze ko'rsatib, mehribonlik qiladi, hurmat qiladi va ularni xursand qiladi. Bundan kelib chiqadiki, oilada va maktabda yaxshi tarbiya olgan bola jamiyatda ham xushxulq, oqil va olim bo'ladi..."

Demak, bolaning tarbiyasi u tug'ilgan vaqtdan boshlab, muntazam ta'lim berish jarayoni bilan olib borilar ekan, bola maktabga borgandan keyin bu jarayon jadal davom etadi. Bolaning o'sishi va tarbiyasi uning faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Ijtimoiy-foydali mehnat, ijtimoiy ishlar, o'yin va o'qish faoliyati, bo'sh vaqtdan oqilona foydalanish kabilar bolalarning hayotida katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bolalarning bunday xilma-xil faoliyatlarini to'g'ri tashkil etish, uni yaxshi alohida sifatlar, xarakter xislatlari, yaxshi odatlar tarkib toptirishga qaratish tarbiyaning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Tarbiyasi og'ir bolalarga esa bu usullar yanada ko'proq qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Ilg'or o'qituvchilar tajribasining ko'rsatishicha, o'quvchilar ahil jamoa bo'lib uyushgandagina tarbiya ishlarini amalga oshirish ancha yengil bo'ladi va muvaffaqiyatga erishiladi. Nosog'lom oila muhitida voyaga yetgan yoki ota-onasidan yomon tarbiya ko'rgan tarbiyasi og'ir bolada ham his-tuyg'ular mujassam bo'ladi. Bunday bola mehrga, e'tiborga muhtojdir. Shuni hisobga olib, bolaning oilasidagi kamchiliklarni bartaraf etish, ota-onasining qarashlarini o'zgartirish, bolaning atrofida do'stlarni ko'paytirish, uni ma'nan qo'llab-quvvatlab turish ham tarbiyasiga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Tadqiqot ishimizning natijasida quyidagi xulosaga kelindi:

1. Bola shaxsining yaxlit va har tomonlama rivojlanishi uning atrof-muhitga, atrofida qilargalarga munosabati, o'qib-o'rganish jaryonida amalga oshadi.
2. Tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlashda tizimli, maqsadga muvofiq yangicha yondashuv asosida ilg'or tajribalarga va psixologik ko'rsatmalarga asosan dastur tashkil qilinsa, samarali natijalarga erishish mumkin.
3. Oila va maktab hamkorligini oshirish, tarbiyasi og'ir bolaning qiziqishlarini inobatga olgan holda mashg'ulotlar turini tashkillashtirish va ularga maqsadli yondashuv, bolada axloqiy-estetik hissiyotni tarbiyalash, ko'nikmasini oshirishda shakl va uslublarni egallab olishga yo'naltirish dardkor.

Adabiyotlar

1. Выготский Л.С. Психика, сознание и бессознательное. Первоначально статья была опубликована в сборнике «Элементы общей психологии» (1930), а позднее включена в «Собрание сочинений» Л.С.Выготского (1982, т.1).
2. Никулина Т. В. Принципы и методы работы с трудными школьниками. // Научно-методический электронный журнал «Концепт». 2017. Т. 39. – С. 2556–2560. – URL: <http://e-koncept.ru/2017/970838.htm>
3. Mantak Yuen, Peter Westwood & Gunter Wong. Meeting the Needs of Students with Specific Learning Difficulties in the Mainstream Education System: Data from Primary School Teachers in Hong Kong, The International Journal of Special Education 2005, Vol 20, №1., -P.67-77.
4. Шестакова Е.Н. Формы работы с трудными детьми и их родителями. – М.: «Пеликан», 2020, – С. 3.
5. Агаев А. Э. Работа психолога с трудными детьми младшего школьного возраста. // Молодой ученый. 2017, апрель, №14 (148) – С. 4-6. URL: <https://moluch.ru/archive/148/42017/>
6. Жагарина М.А. Как оказать помощь “трудным” детям (из опыта работы). // «Воспитание школьников». – 2009. № 8. – С. 66-69.

REZYUME. Ushbu maqolamizda insoniyat bilim, ko‘nikma va ijtimoiy jarayonlar natijasida davlat ta’lim standartlariga asosan boshlang‘ich ta’limda tarbiyasi og‘ir bolalar bilan ishlashga bo‘lgan e’tibor va tarbiya sohasidagi ulkan mas’uliyatlarni his etgan holda, tadqiqotimizning asosiy maqsadi boshlang‘ich ta’limda tarbiyasi og‘ir bolalarni ijodiy faoliyatlarga har tomonlama jalb etish, ulardagi yashirin va o‘ziga xos qobiliyatlarni yuzaga chiqarishda ko‘maklashish, qiziqishlarini yanada oshirish, rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash haqida so‘z boradi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье основной целью нашего исследования является всестороннее вовлечение детей с трудностями в творческую деятельность в начальном образовании, оказание им содействия в раскрытии скрытых и уникальных способностей, дальнейшее повышение их интересов, поощрение и поддержка в соответствии с государственными образовательными стандартами.

SUMMARY. In this article, humanity, as a result of knowledge, skills, and social processes, based on state educational standards, paying attention to working with children with difficult upbringing in primary education and feeling great responsibility in the field of upbringing, the main goal of our research is to comprehensively involve children with difficult upbringing in creative activities in primary education, to help them reveal their hidden and unique abilities, to further increase their interests, to encourage and support them.

ФОРМИРОВАНИЕ ЛИЧНОСТИ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНИКА: РОЛЬ СЕМЬИ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ

Г.А.Каллибекова – кандидат педагогических наук

Д.Т.Базарбаева – магистрант

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

Таянч сўзлар: шахсий ривожланиш, бошланғич синф ўқувчиси, оила, таълим муҳити, ижтимоийлашув, таълим, ўқитувчилар ва ота-оналарнинг ўзаро таъсири, кадрият йўналишлари.

Ключевые слова: личностное развитие, младший школьник, семья, образовательная среда, социализация, воспитание, взаимодействие педагогов и родителей, ценностные ориентации.

Key words: personal development, primary school student, family, educational environment, socialization, education, interaction between teachers and parents, value orientations.

Введение. Вопрос развития личности ребенка всегда был приоритетным для педагогики – как в теории, так и на практике. Особенно важен этот вопрос в младшем школьном возрасте, который считается ключевым этапом для формирования базовых черт характера, социальных представлений и жизненных принципов. Именно в этот период закладывается основа для будущего развития ребенка как ответственного и активного члена социума.

Формирование личности младшего школьника – это сложный и многогранный процесс, в который активно вовлечены как семья, так и образовательная среда. В этот период происходит важнейший этап социализации, который окажет существенное влияние на дальнейшее развитие ребенка. Взаимодействие семьи и школы играет ключевую роль в формировании таких качеств, как самоуважение, социальная ответственность, честность и уважение к окружающим. Рассмотрим, как эти два института влияют на личностное развитие младшего школьника.

Исследования, посвященные формированию личности младшего школьника, подчеркивают важность как семьи, так и образовательной среды в процессе социального и личностного развития ребенка. Ученые из разных областей психологии, педагогики и социологии акцентируют внимание на взаимодействии

этих двух институтов как ключевом факторе, определяющем успешное воспитание ребенка.

Лев Выготский, один из ведущих представителей культурно-исторической психологии, утверждал, что развитие ребенка невозможно без взаимодействия с окружающим миром. Семья, как первый и основной социальный институт, служит основой для формирования первых знаний и опыта ребенка. Выготский акцентировал внимание на важности социального взаимодействия для развития когнитивных и эмоциональных процессов. Он подчеркивал, что личность ребенка развивается в контексте взаимодействия с взрослыми и сверстниками, и это взаимодействие необходимо для формирования его моральных ориентиров [1].

Елена Ямбург, исследователь в области семейной психологии, выделяет следующие аспекты влияния семьи на личностное развитие ребенка:

- Семья является первичным источником нравственных норм и ценностей. Родители передают ребенку важнейшие установки, которые будут определять его поведение в обществе.

- Семейная атмосфера играет важную роль в формировании уверенности ребенка в себе и его чувства собственного достоинства.

- Важным аспектом является стиль воспитания, который определяет уровень самооценки ребенка.